


**BUXORO VILOYATINING
TASHQI SAVDO AYLANMASI**

(2019-yil yanvar-aprel*)

2019-yil yanvar-aprel oyi yakunlariga ko`ra, viloyatda tashqi savdo aylanmasi 377,7 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 6,1 % ga o`sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 91,8 mln. AQSH dollarga (o`sish sur`ati 34,6 %) va import hajmi 285,8 mln. AQSH dollariga (o`sish sur`ati 0,6 % ga kamaydi) yetdi. Tashqi savdo saldosi minus 193,9 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.

**Buxoro viloyatining
tashqi savdo aylanmasi
(mln.AQSH dollar)**

So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi.

Shu bilan birga ta`kidlab o`tish kerakki, 2019-yilning yanvar-aprel oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 23,6 mln. AQSH dollarga ko`proq eksport qilindi, tovar va xizmatlar importi hajmi esa o`tgan yilning mos davriga nisbatan 1,2 mln. AQSH dollariga ko`proqdir.

**Viloyat tashqi savdo aylanmasida
yuqori ulushga ega bo`lgan 20 davlat**

(2019 yil yanvar-aprel)


(mln. AQSH dollarri)


Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o`zgarish sur`ati, %
Rossiya	67,4	20,7	46,7	17,8	36,7
Xitoy	66,1	1,8	64,4	17,5	130,4
Turkmaniston	37,4	27,6	9,8	9,9	109,7
Eron	16,6	2,1	14,5	4,4	41,7
Turkiya	13,8	8,0	5,8	3,7	2,5 б
Qozog`iston	11,9	0,2	11,7	3,2	185,6
Koreya	9,0	0,0	9,0	2,4	4,1 б
Germaniya	8,9	8,8	0,0	2,3	111,4
Qirg`iziston	8,3	8,3	0,0	2,2	31,0 б
Afgoniston	5,8	1,2	4,6	1,5	2,9 б
Ukraina	5,8	0,0	5,7	1,5	174,4
AQSH	3,3	0,1	3,3	0,9	22,6 б
Latviya	2,4	0,1	2,2	0,6	164,2
Litva	2,4	0,0	2,4	0,6	3,7 б
Belgiya	2,0	1,8	0,2	0,5	110,2
Pol'sha	1,8	0,5	1,3	0,5	4,3 б
Belarus	1,4	0,1	1,4	0,4	26,4
Pokiston	1,0	0,2	0,9	0,3	47,9
Arabiston	0,9	0,0	0,9	0,2	63,5
Fransiya	0,7	0,0	0,7	0,2	5,7 б

2019-yilning yanvar-aprel oyi yakuni bo`yicha tovarlar eksporti bilan shug`ullanuvchi korxonalar soni o`tgan yilning mos davriga nisbatan 32 taga ko`payib, 173 taga yetdi.

Tashqi savdo aylanmasi dinamikasi hajmi (yanvar- aprel, mln. AQSH dollar)

Tashqi savdo aylanmasi dinamikasidan keltirilgan ma`lumotlar ko`rsatkichlarning qolgan yillarga nisbatan o`sganligini ko`rsatmoqda. Bundan tashqari, 2019-yil yanvar-aprel oyida amalga oshirilgan eksport hajmi, o`tgan yillarga nisbatan ko`payib, 91,8 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.



**Tashqi savdo aylanmasining eksport va import ulushi, %
(yanvar-aprel)**

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019-yil yanvar-aprel oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 53,8 % ni tashkil etib, hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,1 % tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning, viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2018-yilning yanvar-aprel oyida 34,7 % ni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 46,2 % ga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan 133,1 % ga o'sdi.

**Buxoro viloyatining
ayrim hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi**

(mln. AQSH dolları)

Davlat nomi	2017-yil yanvar- aprel	2018-yil yanvar- aprel	2019-yil yanvar- aprel
Rossiya	165,7	183,6	67,4
eksport	5,8	6,3	20,7
import	159,9	177,3	46,7
saldo	-154,2	-171	-26
Xitoy	10,3	50,7	66,1
eksport	6,2	13,3	1,8
import	4,1	37,5	64,4
saldo	2,1	-24,2	-62,6
Turkmaniston	36,8	34,1	37,4
eksport	1,0	0,6	27,6
import	35,7	33,5	9,8
saldo	-34,7	-32,9	17,8
Eron	26,1	39,8	16,6
eksport	25,1	37,5	2,1
import	1,0	2,3	14,5
saldo	24,1	35,2	-12,4
Turkiya	2,3	5,5	13,8
eksport	1,1	0,5	8,0
import	1,2	5,0	5,8

(mln. AQSH dolları)

Davlat nomi	2017-yil yanvar- aprel	2018-yil yanvar- aprel	2019-yil yanvar- aprel
saldo	-0,1	-4,5	2,2
Qozog`iston	4,8	6,4	11,9
eksport	2,1	2,1	0,2
import	2,7	4,4	11,7
saldo	-0,6	-2,3	-11,5
Koreya	1,4	2,2	9,0
eksport	0,1	0,3	0
import	1,3	1,9	9,0
saldo	-1,2	-1,6	-9,0
Germaniya	1,5	8,0	8,9
eksport	-	-	8,9
import	1,5	8,0	0
saldo	-1,5	-8,0	8,9
Qirg`iziston	0,3	0,3	8,3
eksport	0,3	-	8,3
import	-	0,3	-
saldo	0,3	-0,3	8,3
Afgoniston	17,2	2,0	5,8
eksport	17,1	2,0	1,2
import	0,1	-	4,6

(mln. AQSH dolları)

Davlat nomi	2017-yil yanvar- aprel	2018-yil yanvar- aprel	2019-yil yanvar- aprel
saldo	17,1	2,0	-3,4
Ukraina	1,4	3,3	5,8
eksport	0,3	0,3	-
import	1,0	3,0	5,8
saldo	-0,7	-2,7	-5,8
AQSH	-	0,1	3,3
eksport	-	-	0,1
import	-	0,1	3,3
saldo	-	-0,1	-3,2
Latviya	4,6	1,5	2,4
eksport	1,0	-	0,1
import	3,6	1,5	2,3
saldo	-2,6	-1,5	-2,3
Litva	0,2	0,6	2,4
eksport	-	0,1	-
import	0,2	0,5	2,4
saldo	-0,2	-0,4	-2,4
Belgiya	0,3	1,9	2,0
eksport	-	-	1,8
import	0,3	1,9	0,2


(mln. AQSH dolları)

Davlat nomi	2017-yil yanvar- aprel	2018-yil yanvar- aprel	2019-yil yanvar- aprel
saldo	-0,3	-1,9	1,6
Pol'sha	0,1	0,3	1,4
eksport	-	0,3	-
import	0,1	-	1,4
saldo	-0,1	0,3	-1,4
Belarus	1,1	3,9	1,0
eksport		0,1	0,2
import	1,1	3,8	0,8
saldo	-1,1	-3,7	-0,6
Pokiston	0,1	1,9	0,9
eksport	-	0,2	-
import	0,1	1,6	0,9
saldo	-0,1	-1,4	-0,9
Arabiston	-	1,1	0,7
eksport	-	1,1	-
import	-	-	0,7
saldo	-	1,1	-0,7
Fransiya	0,1	0,1	0,7
eksport	-	-	-
import	0,1	0,1	0,7
saldo	-0,1	-0,1	-0,7

EKSPORT

2019-yil yanvar-aprel oyida eksport hajmi 91,9 mln. AQSH dollarga (o'sish sur'ati 34,6%) teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 78,3 % ulushga ega bo`lib, bular asosan to'qimachilik va to'qimachilik buyumlari (61,0 %) oziq-ovqat mahsulotlari (19,4 %), energiya manbalari va neft mahsulotlari (9,6 %), ni tashkil qiladi.

Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi
(mln.AQSH.dollari)



2019-yilning yanvar-aprel oyida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko`rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida o`tgan yilning shu davriga nisbatan 3 barobarga o'sish o`zgarishlari qayd etildi, va 2019-yilning yanvar-aprel oyida amalga oshirilgan eksportning umumiy hajmida ayrim turdag'i tovar va xizmatlarda o'sish sur`atlari qayd etildi.

Eksport tarkibi

(2019-yil yanvar-aprel)

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSH dollarri	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH dollarri	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH dollarri	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Jami eksport	91,9	134,8	100,0	29,5	3,0 b	100,0	62,4	106,8	100,0
Paxta tolasi	44,6	91,6	48,5	-	-	-	44,6	91,6	71,5
Oziq-ovqat mahsulotlari	17,8	5,9 b	19,5	15,7	7,0 b	53,2	2,1	2,6 b	3,4
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	0,5	100,0	0,5	0,5	125,0	1,7	-	-	-
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	8,8	5,2 b	9,6	0,4	-	1,4	8,4	4,9 b	13,5
Qora metallar va undan tayyorlangan buyumlar	0,01	100,0	-	0,05	5,0 b	0,2	-	-	-
Rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari	0,1	94,1	-	0,05	-	0,2	-	-	-
Xizmatlar	4,8	94,1	5,2	2,9	181,3	9,8	1,9	54,3	3,0
Boshqalar	15,2	165,2	16,6	9,9	176,8	33,6	5,4	150,0	8,7


Eksport tarkibi dinamikasi

(mln. AQSH. dollari)


Tarkibi	2015-yil yanvar-aprel	2016-yil yanvar-aprel	2017-yil yanvar-aprel	2018-yil yanvar-aprel	2019-yil yanvar-aprel
Jami	111,0	95,5	70,4	68,2	91,9
Paxta tolasi	42,0	48,4	34,6	48,7	44,6
Oziq-ovqat mahsulotlari	4,0	2,1	4,31	3,0	17,8
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	0,5	0,4	0,6	0,5	0,5
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	9,1	16,7	17,8	1,7	8,8
Qora metallar va undan tayyorlangan buyumlar	-	1,2	-	0,01	0,01
Rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar	-	-	-	-	-
Mashina va asbob- uskunalar hamda ularning qismlari	-	-	-	-	0,1
Xizmatlar	27,3	3,7	4,0	5,1	4,8
Boshqalar	28,1	23,1	9,1	9,2	15,2

Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahliliga ko`ra, 2019-yilning yanvar-aprel oyi mobaynida eksport qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 24,0 mln. AQSH dollariga ko`p eksport qilindi va 87,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar eksporti esa 5,1 mln. AQSH dollarga yetgan.


**2019 yilda MDH va boshqa xorijiy davlatlarning
tovar va xizmatlar eksportidagi hajmi %**
(oylar kesimida, mln. AQSH dollarri)



**Viloyat eksportida asosiy
hamkor davlatlarning ulushi %**



Xizmatlar eksporti hajmi 4,8 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 5,2 % ini tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 94,1 % ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari transport xizmatlari, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to`g`ri keladi.





Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2019-yilning yanvar-aprel oyida jami 30,4 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 15,7 mln. AQSH dollariga eksport qilindi (o`sish sur`ati - 7,2 b %). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019-yilning yanvar-aprel oyida 28,5 ming tonna sabzavotlar 10,6 mln. AQSH dollariga yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 8,7 mln. AQSH dollarigan ko`p miqdorda eksport qilingan.

Shuningdek, 1,9 ming tonna meva va rezavorlar 5,1 mln. AQSH dollariga eksport qilingan bo`lib, eksport hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan 4,4 ming tonnaga ko`pdir.

Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi, (ming tonna)



Shuni aytib o`tish joizki, viloyatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o`zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2019-yilning yanvar-aprel oyida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 15,7 mln.AQSH dollariga yetdi (o`tgan yilning mos davriga nisbatan 7,2 b ga o`sgan).



Mustaqillikka erishgan ilk yillarda viloyatimiz yengil sanoatida faqatgina paxta xom-ashyosi eksport qilingan bo`lsa, hozirda esa tayyor to`qimachilik va yengil

sanoat mahsulotlari yetkazib beruvchi eksportyor sifatida dunyo iqtisodiyotida o`z o`rnini egallab kelmoqda.

IMPORT

Joriy yilning yanvar-aprel oyida import hajmi 285,8 mln. AQSH dollariga (o`sish sur`ati 0,6 % kamaydi) teng bo`ldi. Import tarkibida eng katta ulush energiya manbaalari (51,3 %), mashina usrunalari(25,2 %),kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (5,4 %) hamda qora va rangli metallar (1,3 %) guruhlari hisobiga to`g`ri keldi.

Tovar va xizmatlar importi tarkibi
(yanvar-aprel holatiga, mln.AQSH dollar)



- █ Oziq-ovqat mahsulotlari
- █ Kimyo mahsulotlari va buyumlari
- █ Energiya manbaalari va neft mahsulotlari

- █ Mashina va asbob-uskunalar
- █ Boshqalar
- █ Qora va rangli metallar

Shu bilan birga ta`kidlab o`tish kerakki, 2019-yilning yanvar-aprel oyi mobaynida viloyatda import qilinayotgan tovar va xizmatlar mart oyiga nisbatan

57,2 mln. AQSH dollarga ko`p import qilindi va 287,6 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Import tarkibi

(2019-yil yanvar-aprel)

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSH dollar	o`tgan yilga nisbatan, %	umumiylajmga nisbatan, %	mln. AQSH dollar	o`tgan yilga nisbatan, %	umumiylajmga nisbatan, %	mln. AQSH dollar	o`tgan yilga nisbatan, %	umumiylajmga nisbatan, %
Import	285,8	99,4	100,0	173,5	78,0	100,0	112,3	172,2	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	6,0	146,3	2,1	5,0	178,6	2,9	1,0	76,9	1,0
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	15,4	146,7	5,4	3,6	2,1 b	2,1	11,8	134,1	11,8
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	146,7	76,6	51,3	146,6	76,6	84,5	0,1	3,3 b	0,1
Qora metallar	3,7	63,8	1,3	2,5	46,3	1,4	1,2	3,0 b	1,1
Rangli metallar	0,2	2,0 b	0,1	0,2	-	0,1	0,04	40,0	-
Mashina va asbob-uskunalar	72,2	147,3	25,3	4,6	37,7	2,7	67,6	183,7	60,2
Boshqalar	41,6	156,4	14,6	11,0	125,0	6,3	30,6	171,9	27,2

Import tarkibi dinamikasi

(mln. AQSH dollar)

Tarkib	2015-yil yanvar-aprel	2016-yil yanvar-aprel	2017-yil yanvar-aprel	2018-yil yanvar-aprel	2019-yil yanvar-aprel
Jami	53,8	149,7	215,1	287,6	285,8
Oziq-ovqat mahsulotlari	2,5	0,9	1,0	4,1	6,0
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	8,0	5,0	4,8	10,5	15,4
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	13,0	120,0	19,1	191,5	146,7
Qora metallar	3,1	1,8	3,2	5,8	3,7
Rangli metallar	-	-	-	0,1	0,2
Mashina va asbob- uskunalar	14,2	12,8	11,0	49,0	72,2
Xizmatlar	4,1	3,5	0,2	0,2	0,2
Boshqalar	9,0	5,7	4,2	26,6	41,6

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko`ra, 2019-yilning yanvar-aprel oyi mobaynida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan -1,8 mln. AQSH dollariga kam import qilindi va 285,8 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,2 mln. AQSH dollarga yetgan.

**Buxoro viloyatida
asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi
(yanvar-aprel)**

Davlat nomi	mln. AQSH dollarri		o'sish sur'ati, %		o'rni	
	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.
Rossiya	177,3	97,2	110	54,8	1	1
Turkmaniston	33,5	64,4	93,8	1,9 b	3	2
Xitoy	37,5	46,7	9,3 b	124,5	2	3
Turkiya	5,0	14,5	4,1 b	2,9 b	5	4
Eron	2,3	9,8	2,5 b	4,2 b	10	6
Kopea Respublikasi	1,9	11,7	1,5 b	6,1 b	11	5
AQSH	0,1	5,7	2,5 b	57,0 b	24	9
Qozog`iston	4,4	5,8	1,7 b	131,8	6	8
Ukraina	3,1	4,6	3,1 b	148,3	8	10
Latviya	1,5	3,3	41,6	2,2 b	14	11
Bei'giya	1,9	2,4	6,3 b	126,3	12	12
Litva	0,5	2,2	-	4,4 b	16	13
Belarus	3,8	1,4	3,4 b	36,8	7	14
Arab amirligi	-	0,9	-	-	40	16
Franciya	0,1	0,7	2,0b	7,0 b	26	18
Pol'sha	-	1,3	-	-	35	15
Pokiston	1,6	0,9	88,8b	56,2	13	17
Niderlandiya	0,1	0,7	2,7 b	7,0 b	27	19

Hindiston

0,2

0,6

2,6 b


3,0 b

22

20


**MDH va Boshqa xorijiy davlatlarning tovar
va xizmatlar importidagi hajmi
(oylar kesimida, mln. AQSH dollarri)**

(mln. AQSH dollarri)




**Viloyat importida asosiy
hamkor davlatlarning ulushi, %**

2018 yil
yanvar-aprel



2019 yil
yanvar- aprel



Rossiya		Rossiya
Turkmaniston		Turkmaniston
Xitoy		Xitoy
Turkiya		Turkiya
Eron		Eron

2019-yilning yanvar-aprel oyida viloyatda 50 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 5 ta eng yirik bo`lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Eron va Turkiya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 232,6 mln. AQSH dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 80,9 % ini tashkil qildi.

Qurilish materiallari importi tarkibi

Yuqoridagi infografikadan ko`rinib turibdiki, 2019-yilning yanvar-aprel oyida qurilish materiallari import hajmi 2018-yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Qurilish materiallari importi hajmining o`sishiga viloyatimizda olib borilayotgan bunyodkorlik, xususan, keng ko`lamdagি qurilish-rekonstruktsiya ishlarini amalga oshirilishi sabab bo`lmoqda.

2019 yilning yanvar- aprel oylari mobaynida 7,5 mln. AQSH dollari miqdorida qurilish materiallari importi hajmi amalga oshirildi. Bu ko`rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ga o`sib, umumiy import hajmining 2,7 %ini tashkil qildi. Import qilingan Qurilish materiallari tarkibidan Sement (3,2 %), Yog`och va yog`och mahsulotlari (61,3 %), hamda shisha va shisha buyumlar (34,7 %) asosiy ulushni egallagan.

Qurilish materiallari importi tarkibi (2019 yil yanvar-aprel holatiga)

SEMENT

0,2 mln.AQSH dollarlik mahsulot import qilingan. O`tgan yilga nisbatan 40,0 % foizga oshgan.

YOG`OCH VA YOG`OCH MAHSULOTLARI

4,6 mln.AQSH dollarlik mahsulot import qilingan. O`tgan yilga nisbatan 85,2 foizga oshgan.

SHISHA VA SHISHA BUYUMLAR

2,6 mln.AQSH dollarlik mahsulot import qilingan. O`tgan yilga nisbatan 144,4 foizga oshgan.

Shu o`rinda ta`kidlash lozimki, davlatimiz tomonidan qurilish mahsulotlari importi o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan to`yintirish bo`yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o`rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:71-230-83-22**